


# Maydanak osmoni ostida: astronomiya, ilm va turizm uyg'unligi

Joriy yilning 7-8-avgust kunlari Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida, dengiz sathidan 2650 metr balandlikda joylashgan Maydanak observatoriyasida ushbu hudud turizm salohiyatini respublika va xorijda targ'ib etish maqsadida "Yulduzli osmon" astronomik ilmiy-amaliy anjumani hamda ommaviy axborot vositalari vakillari, talaba-yoshlar uchun press-tur tashkil etildi.



Tadbir Yangi O'zbekiston universiteti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Astronomiya instituti hamda "O'zbekkosmos" hamkorligida yoshlarni ilm-fanga jalb qilish, so'nggi astronomik tadqiqotlar, ilm-fandagi yangiliklar hamda kashfiyotlar bilan keng jamoatchilikni tanishtirib borish, shuningdek, ilm-fan

ta'lim integratsiyasini ta'minlash, "Dolzarb 90 kun" (o'quvchi-talabalarning yozgi ta'tilini mazmunli o'tkazish) doirasida o'tkazildi.



Ma'lumki, Maydanak baland tog' astronomiya observatoriysi — O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya institutining asosiy kuzatuv maskani hisoblanadi. Uning eng asosiy jihatı — mustahkam atmosfera sharoitiga egaligi, yiliga taxminan 2000 soatlilik musaffo tungi vaqt mavjud bo'lib, bu astronomik kuzatuvlar uchun yuqori sifatni ta'minlaydi.

Observatorianing Yevroosiyo materigining markazida, dunyodagi asosiy astronomik ob'ektlar — Kanar orollari va Gavayi orollari o'rtaida joylashganligi, hamda yaxshi astroklimatga egaligi tufayli Maydanak dunyodagi qator nufuzli xalqaro loyihalarda ishtirok etib kelmoqda. Bu loyihalar astrofizik ob'ektlarni doimiy monitoring qilishni talab qiladi.

Maydanakdagi ilmiy tadqiqotlar dunyodagi 20 dan ortiq yetakchi ilmiy markazlar bilan hamkorlikda olib boriladi. Ular orasida Janubiy Koreya universitetlari konsortsiumi, Yaponiya Milliy astronomiya observatoriysi, Xitoy FA Milliy astronomiya observatoriyalari, Frantsyaning Nitstsa universiteti, Germaniyaning Gyote universiteti, M.V. Lomonosov nomidagi MDU, Rossiya FA Quyosh sistemasi instituti, Yevropa janubiy observatoriysi (ESO) va boshqalar mavjud.

Maydanak observatoriyasida o'tkazilgan "Yulduzli osmon" astronomik anjumani mamlakatimizda ilm-fanni, xususan astronomiya sohasini rivojlantirish, yoshlarni ilmga jalb qilish hamda turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi.

Press-tur respublika va xalqaro hamkorlikning yorqin namunasi sifatida Maydanak observatoriyasining yuksak astroklimatik sharoiti va ilmiy salohiyatini keng jamoatchilikka tanishtirishga xizmat qildi. Observatorianing jahon miqyosidagi nufuzli loyihalarda qatnashishi, yetakchi xalqaro ilmiy markazlar bilan hamkorligi O'zbekiston astronomiyasining global ilmiy maydonidagi o'rni tobora

mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Mazkur anjuman ilm-fan va ta'lim integratsiyasiga hissa qo'shib, mamlakatda ilm-fanga bo'lgan qiziqishni yanada oshirishga turtki bo'ladi.